

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI  
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti kurs koordinatorlarining 2026-yilga mo‘ljallangan yillik  
ISH REJASI

**Toshkent-2026**

T/r	Bajariladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ullar
<b>I.Ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy tarbiya sohasida amalga oshiriladigan ishlar</b>				
1	Talabalarni <b>universitet Nizomi</b> , Ichki tartib-qoidalari, <b>“Odob-axloq kodeksi”</b> va <b>ichki tartib qoidalar</b> bo'yicha normativ hujjatlar bilan tanishtirish.	1. “Odob-axloq kodeksi”ning mazmun-mohiyati bilan kurs talabalarini tanishtirish; 2. OTMning ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi qonun-qoidalariga rioya qilish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish; 3. Talaba tomonidan odob-axloq qoidalari va boshqa ichki tartib-qoidalar buzilganda unga nisbatan chora ko'rish to'g'risida ta'lim muassasasi va fakultet rahbariyatiga taklif kiritish.	2026-yil Fevral-sentabr	Yoshlar ishlari ofisi, fakultet dekanlari, PR va marketing ofisi, fakultet kurs koordinatorlari
2	Yil davomida talabalarni ma'naviy va marifiy jihatdan faolliklarini oshiruvchi tadbirlar tashkil etish	1. “Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun” mavzusida ma'ruzalar matni, taqdimot va roliklar asosida barcha ta'lim muassasalarida “Mustaqillik darsi”ni o'tkazish; “Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun” shiori ostida madaniy, ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ko'maklashish. 2. “Kasbiy mahorat – shaxsiy yuksalish garovi” mavzusidagi talabalar ishtirokidagi ma'naviy tadbir o'tkazish. Talabalarda o'z kasbiga qiziqish uyg'otish orqali kelajakda malakali va bilimli, o'z sohasini mukammal biluvchi mutaxassi bo'lib yetishishga qiziqish shakllantirish. 3. Universitet bitiruvchilari uchun “Kelajakka qadam” dasturi “TalabaExpo-2025” doirasida kasb ko'rgazmasini tashkil etish choralarini ko'rish. 4. Fakultetlarda 1-kursga qabul qilingan talabalar bilan <b>“Men tanlagan mutaxassislik”</b> mavzusida onlayn davra suhbatlarini o'tkazish. 5. Ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida professor-o'qituvchilar va yosh targ'ibotchilar ishtirokida <b>“Ustozim – hayotim chirog'i”</b> va <b>“Mening hayot falsafam”</b> kabi loyihalar asosida tadbirlar tashkil etib borish. 6. “O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun” munosabati bilan, universitetda <b>“Davlat tili – milliy ma'naviyatimiz timsoli”</b>	2026-yil Fevral va sentabr  2026-yil Aprel-may hamda noyabr-dekabr  2026-yil sentabr  2026-yil oktabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O Yusupdjanov, Akademik va o'qituvchilar ishlari ofisi, Yoshlar ishlari ofisi, fakultet dekanlari, PR va marketing ofisi, fakultet kurs koordinatorlari

		<p>mavzusida turkum ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va tanlovlarni tashkillashtirish.</p> <p>7. “25-noyabr — Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish” kuni munosabati bilan haftalik o‘tkazish.</p> <p>8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 33 yilligi munosabati bilan talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan turkum tadbirlar va <b>“Huquq bilimdonlari”</b> tadbirlarini o‘tkazish.</p> <p>9. Huquq-tartibot organlari xodimlari hamkorligida <b>“Ogohlikni men qanday his etaman?”</b>, <b>“Agar ogohsan, sen...”</b> mavzularida uchrashuvlar o‘tkazish.</p> <p>10. Yoshlarning diplomatiya sohasidagi bilimlarini mustahkamlash, xalqaro tajriba almashinuviga zamin yaratish va o‘z salohiyatlarini namoyish etishlari uchun “Yosh diplomatlar forumi”ni tashkil etish.</p> <p>11. <b>“Ayol diplomatlar bilan uchrashuv”</b> loyihasi.</p> <p>12. “Adiblar xiyoboni – ma’naviy bunyodkorlik ramzi” shiori ostida universitetga biriktirilgan adibning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan turkum tadbirlar tashkil etish.</p> <p>13. <b>“Eng yaxshi kitobxon”</b> ko‘rik tanlovlari tashkil etiladi. <b>“Talabalik bahori”</b> an’anaviy festivalini tashkil etish: 1. Fakultetlarga biriktirilgan viloyatlar kesimida tanishtiruv. 2. Ommaviy raqs; 3. Folklor; 4. Musiqa asbobida asar ijrosi; 5. She’rxonlik; 6. Liboslar namoyishi; 7. Sahna ko‘rinishi; 8. Qo‘shiq. 9. Sahna bezaklari, ishtirokchilarning liboslari va festivalning tashkil etilishi.</p> <p>14. Atrof-muhit muhofazasi, chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, seminar va treninglar tashkil etish. Ekologik tadbirlar - “Yashil hudud” yaratish, daraxt ekish, tozalash aksiyalari, ekologik marafonlar, eko festivallarni o‘tkazish.</p> <p>15. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng</p>	<p>2026-yil noyabr</p> <p>2026-yil noyabr</p> <p>2026-yil dekabr</p> <p>Belgilangan reja asosida</p>	
--	--	---	--	--

		huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar hamda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Qonunlar, qarorlar va farmonlar mohiyatini chuqur anglagan holda tizimdagi xotin-qizlar uchun onlayn o'qishlar tashkil etish.		
3	Talabalarning universitet va Respublika bosqichidagi turli tanlovlarda muntazam ravishda ishtirokini ta'minlash.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>“Talabalar teatr studiyalari”</b> ko'rik-tanlovi universitet saralash bosqichini tashkil etish.</li> <li>2. <b>“Yurtim qadriyatlari”</b> ko'rik-tanlovi – universitet saralash bosqichini tashkil etish.</li> <li>3. <b>“O'zbek tili – qalbm tarjimoni”</b> tanlovi – saralash va final bosqichida faol ishtirok etish.</li> <li>4. Talaba-yoshlarning ijodiy, intellektual fikrlashini qo'llab-quvvatlash maqsadida <b>“Vatan taraqqiyotiga mening hissam”</b> loyihasini amalga oshirish. Bunda: <b>“Korrupsiya kelajakka tahdid”</b> insholar tanlovi; <b>“O'zbekiston yoshlar nigohida”</b> rasmlar tanlovi, <b>“Ona Vatanimning buyuk farzandlari”</b>, <b>“O'zbekistonlik ekanimdan faxrlanaman”</b>, <b>“Vatanga xizmat qilish – buyuk maqsadim”</b> mavzularida maqolalar tanlovi.</li> <li>5. <b>“Islohotlar bilimdoni”</b> ko'rik-tanlovi – yakuniy final bosqichida faol ishtirok etish.</li> <li>6. <b>“Ma'rifat maydoni”</b> ko'rik-tanlovi – universitet saralash bosqichini tashkil etish.</li> <li>7. <b>“Yilning eng faol talabasi”</b> tanlovi – universitet bosqichida ishtirok etish.</li> <li>8. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bilimlar bellashuvi – saralash bosqichida faol ishtirok etish.</li> <li>9. <b>“Kitob mening do'stim”</b> tanlovi – universitet bosqichini tashkil etish.</li> <li>10. <b>“Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari”</b> mavzularida insholar tanlovi – OTM saralash bosqichini yuqori saviyada tashkil etish.</li> <li>11. <b>“Kitobxon yoshlar ligasi”</b> onlayn kitobxonlik tanlovi final bosqichida faol ishtirok etish.</li> </ol>	<p>2026-yil oktyabr</p> <p>2026-yil oktyabr</p> <p>2026-yil oktyabr</p> <p>2026-yil noyabr</p> <p>2026-yil dekabr</p>	Besh muhim tashabbus markazi, JIDU Teatr studiyasi , fakultet dekanlari, barcha kurs koordinatorlari, Sport klubi, talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, PR va marketing ofis

		<b>12.</b> “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovining hududiy bosqichida faol ishtirok etish.	2026-yil dekabr	
4	Kelajak soatlarini tashkil etish.	Har hafta mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlar, xorijda ro‘y berayotgan voqealar, yangi qabul qilingan qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, shuningdek, oliy ta‘lim tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va topshiriqlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ma‘rifat soatlarini tashkil etish.	2026-yil fevral-may hamda sentabr-dekabr	Fakultet kurs koordinatorlari, Fakultet professor-o‘qituvchilari
5	Fakultet talabalari ishtirokida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Talaba yoshlarni jismoniy faolligini oshirish, ularni turli sport turlariga qiziqtirish, tegishli fakultet talabalari orasida sportning jamoaviy turlari bo‘yicha <b>“Fakulteti kubogi”</b> turnirlarini o‘tkazish.</li> <li>- <b>«Besh tashabbus olimpiadasi»</b> sport musobaqasi 2-hududiy bosqichida faol ishtirok etish;</li> <li>- <b>“Talaba yugur”</b> sport musobaqasi – kuzgi mavsumda faol ishtirok etish.</li> <li>- <b>“Talabalar ligasi”</b> sport musobaqasi – 1-OTM bosqichini tashkil etish;</li> <li>- <b>«Besh tashabbus olimpiadasi»</b> sport musobaqasi – 3-Respublika bosqichida faol ishtirok etish;</li> <li>- <b>“Talaba yugur”</b> sport musobaqasi – kuzgi mavsumda faol ishtirok etish;</li> <li>- 1-oktyabr <b>“Ustoz va murabbiylar”</b> kuni munosabati bilan JIDU sport klubiga birlashtirilgan mahalla yoshlari va universitet talabalari o‘rtasida futbol, stol tennis va badminton musobaqalarini tashkil etish.</li> <li>- Voleybol, Futbol, Suzish, Shaxmat, Stol tennis, WORKOUT, Badminton sport turlari bo‘yicha <b>“Rektor kubogi”</b>ni o‘tkazish.</li> <li>- <b>“Student’s cup – 2026”</b> futbol musobaqalari</li> </ul>	<p>2026- yil Mart va Oktabr</p> <p>2026- yil Oktabr</p> <p>2026- yil aprel</p> <p>2026- yil may</p>	Besh muhim tashabbus markazi, JIDU Teatr studiyasi , fakultet dekanlari, barcha kurs koordinatorlari, Sport klubi, talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, PR va marketing ofisi

		<ul style="list-style-type: none"> <li>- <b>“Sportchi – yurt himoyachisi!”</b> shiori ostida sport oyligida faol ishtirok etish.</li> <li>- Kurash sport turi bo‘yicha <b>“Vazir kubogi”</b> musobaqasi – final bosqichida faol ishtirok etish.</li> </ul>	2026- yil iyun	
6	Mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, yoshlar orasida keng targ‘ib etish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini mustahkamlash maqsadida <b>“Ajdodlar xotirasi yodimizda”</b> mavzusida professor-o‘qituvchilar va talablarning madaniy ekskursiyalarini tashkil etish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>“Teatr – tarbiya maskani”, “Vatan bo‘ylab sayohat”</b> shiori ostida mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, yoshlar orasida keng targ‘ib etish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini mustahkamlash maqsadida <b>“Ajdodlar xotirasi yodimizda”</b> (Adiblar xiyoboni, muqaddas qadamjolarga) <b>“O‘zbekiston — jannatmakon diyor”, “Biz nechun sevamiz, O‘zbekistonni”, “Bunyodkorlik yo‘lida”</b> mavzularida professor-o‘qituvchilar va talablarning madaniy ekskursiyalarini tashkil etish.</li> <li>2. Bitiruvchi talabalarimizning xotirasida universitetdagi kunlaridan yaxshi esdalik qoldirish niyatida amaliyotni tugatib, faqat Bitiruv himoyasi qolgan talabalarining bo‘sh vaqtida ularni Samarqand, Buxoro yoki Xivaga sayohatga olib borish</li> <li>3. Toshkent shahridagi muzeylar, tarixiy maskanlar hamda <b>“Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi”, G‘alaba bog‘i, Adiblar xiyoboni</b> da o‘quv amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish.</li> </ol>	2026-yil aprel  2026-yil aprel  2026-yil may	Besh muhim tashabbus markazi, JIDU Teatr studiyasi fakultet dekanlari, barcha kurs koordinatorlari, Talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, PR va marketing ofisi
7	Universitet talabalarining yuridik klinika faoliyati bilan tanishtirish va ularni klinika faoliyatiga faol jalb etish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuridik klinika tomonidan yangi o‘quv yilidagi maxsus trening mashg‘ulotlarida ishtirok etish uchun talabalarni tanlov va suhbatlar asosida saralashni tashkil etish. Yangi o‘quv-amaliyot dasturi, yuridik klinika ta‘limoti rejalarini <b>“Xalqaro huquq”</b> fakulteti o‘qituvchi professorlari bilan muhokama qilish va tasdiqlash.</li> <li>2. Yuridik klinika talabalarining an‘anaviy ilmiy-amaliy konferensiyani o‘tkazish.</li> <li>3. Yuridik klinikadagi loyihalar doirasida, xususan, <b>Street law, Legal Clinic for people with disabilities, “Qaldirg‘och”, “Ekologik yuridik klinika”, “Migratsiya va fuqarolik”</b></li> </ol>	2026-yil sentabr va oktabr	Yuridik klinika Z.Ubaydullayev, I.A. Cherkashina

		loyihalari yuzasidan rejalari asosida, Yuridik klinikaga a'zo talabalarning treninglarda, ilmiy seminarlar, xalqaro anjumanlardagi ishtirokini ta'minlash		
8	Talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimini muntazam yo'lga qo'yish	Semestr davomida talabalar orasidan iqtidorlilarini aniqlash, ularni turli tanlov va musobaqalarga jalb qilish va talabalarni erishgan yutuqlarini OAVlarda yoritib borish, har bir semestr yakunida ularni rag'batlantirish, g'olib talabalar ro'yxatlarini shakllantirib borish, turli tanlov va musobaqalar (fan-ta'lim, badiiy, san'at, ijodiy, sport yo'nalishlari)ga talabalarni jalb etish, g'olib va sovrindor talabalar to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish.	2026-yil May va Dekabr	Besh muhim tashabbus markazi, fakultet dekanlari, barcha kurs koordinatorlari, Sport klubi, talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, talabalar ilmiy jamiyati, PR va marketing ofisi.
9	Universitet rasmiy sahifalari va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda muntazam targ'ibot ishlarini olib borish	Internet tizimida, ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, Instagram, Yutub, Feysbuk) "Yurtimning buyuklari" nomi ostida intellektual savoljavob, test, onlayn viktorinalar o'tkaziladigan kanallar, guruhlar tashkil qilish. Bunda: O'zbekiston hududida yetishib chiqqan buyuk allomalar, sarkardalar, davlat va jamoat arboblarning hayoti, ilmiy, ijodiy ishlari, davlat va jamiyat rivoji yo'lida amalga oshirgan ibratli faoliyati haqida ma'lumotlar berib borish; mamlakatimizdagi mashhur olimlar, tadbirkorlar, yozuvchilar, madaniyat, san'at va sport sohasida katta yutuqlarga erishgan shaxslarning hayoti va ijodi, xususan maktab davri haqidagi ibratli voqealarni hikoya qiluvchi videoroliklar tayyorlash.	2026-yil noyabr	Besh muhim tashabbus markazi, fakultet dekanlari, barcha kurs koordinatorlari, talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, PR va marketing ofisi G.Shakirova, Talabalar media guruhi.
10	Universitetda ma'naviy ma'rifiy yo'nalishda axborot-resurs jihatdan tayyorgalik	1. Universitet hududida shuningdek, veb-saytlar hamda internetdagi sahifalarida: ko'rgazmali tasviriy-targ'ibot va tarbiyaviy vositalar, ilmfan, ta'lim-tarbiya, innovatsiyalar, o'zlikni anglash va vatanparvarlik hamda jismoniy tarbiya, sport va kitobxonlikka oid shiorlar, hikmatli so'zlardan iborat bannerlar, devoriy lavhalar bilan ta'minlanishini tashkil etish, 5 muhim tashabbus yo'nalishlari bo'yicha fakultetlar reyting ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi elektron maxsus stendlar va tarqatma materiallarni tayyorlash. 2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududlardagi boshqarmalari va tegishili	2026-yil sentabr	Besh muhim tashabbus markazi, fakultet dekanlari, barcha kurs koordinatorlari, Sport klubi, talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, talabalar ilmiy jamiyati, PR va marketing ofisi  Besh muhim tashabbus markazi, Eco -Club

		tashkilotlar bilan birgalikda mavzuga oid spektakllar, kino asarlari, targ'ibot roliklarini yaratish.	2026-yil sentyabr	faollari, dekan muovnlari, kurs koordinatorlari, Yoshlar ittifoqi, Talabalar kengashi
11	Kurs talabalari orasida azaliy qadriyatlarimizni targ'ib qilib, milliy bayram kunlarini ko'tarinki ruhda tashkil etish va talabalar unutilmas tadbirlarni tashkil etish.	Kurslar kesimida oshpazlikda mahorati bor talabalar o'rtasida Navro'z bayrami arafasida "Osh musobaqasi" tadbirini tashkillashtirib, yoshlar orasida milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni namoyon qilib bag'rikenglik tamoyillarini targ'ib qilish.	2026- yil Mart va Oktabr	Tegishli fakultet dekani, dekan muovini fakultet, kurs koordinatorlari
12	Universitet profilaktika noziri hamda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlarni tashkil etish	<p>1. Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar, jinoiy harakatlarning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>2. "Vatanparvarlikni chinakam e'tiqodga aylantiraylik", "<b>O'zbek yigiti – mustaqillik posboni</b>" mavzularida harbiy soha mutaxassislarini jalb qilgan holda vebinar davra suhbatlari o'tkazish.</p> <p>3. "Korrupsiyasiz hayot" aksiyasini o'tkazish. Aksiya doirasida: "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzusida targ'ibot tadbirlari, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ishtirokida vebinar davra suhbatlari va tanlovlar tashkil etish.</p> <p>4. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari – tinchlik va osoyishtalik posboni", "<b>Temur tuzuklari</b>"ning yoshlar tarbiyasiga ta'siri", "<b>Vatan ozodligi — oliy saodat</b>" kabi mavzularda hamkor tashkilotlar bilan uchrashuvlar tashkil etish.</p> <p>5. Universitetda diniy ekstremizm radikalizmga moyillik alomatlari kuzatilayotgan talabalar bilan reja-grafik asosida profilaktik yakka tartibdagi ma'rifiy suhbatlarni tashkil etish.</p> <p>6. Zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan agressiv talabalarning sodir etgan xatti harakatlarining salbiy</p>	2026- yil davomida	Yoshlar ishlari ofisi, Fakultet dekanlari, JIDU profilaktika inspektori, barcha kurs koordinatorlari, talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, PR va marketing ofisi.

		oqibatlarini bartaraf etish maqsadida ular bilan yakka tartibda yoki guruh shaklida tushuntirish ishlarini olib borish. 7. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish profilaktikasi kuni		
13	Ijarada va TTJda yashaydigan talabalar bilan ishlash tizimini kuchaytirish.	1. Muntazam ravishda har hafta TTJda va ijarada yashovchi talabalar yashash sharoitlarini o'rganish hamda nazorat olib borish. 2. "Yoshlar orasida xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish" mavzusida tadbirlarni tashkil etish; 3. Zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan talabalarning boshqa shaxslarning huquqlarini kamsitmagan va buzmaganda o'z hissiyotlarini ochiq namoyon etishga, hatti harakatlarini nazorat qilishga o'rgatish.  4. TTJda yashovchi talabalar uchun talabada uy muhiti, ruhiy ijobiy holat, ota-ona bilan aloqa va tarbiyaviy jarayonlarni integratsiyalashga qaratilgan ota-ona ishtirokidagi "Oilaviy muhit" uchrashuvlari	2026-yil davomida	Fakultet dekani, dekan muovini, kurs koordinatorlari
14	Kurs talabalarning ijtimoiy psixologik holatini muntazam nazorat qilish va yangi qabul qilingan talabalarning psixologik portretini shakllantirishda ko'maklashuv	1. Biriktirilgan talabalarning ijtimoiy holati (oilaviy holatiga tegishli barcha mezonlar asosida) o'rganish 2. Har bir talaba bo'yicha ijtimoiy-psixologik portretni umumlashtirish va ularni shartli ravishda toifalarga ajratish; 3. "Ijtimoiy xavfli guruh" ro'yxatini shakllantirish; 4. Talabalarning ijtimoiy-psixologik portreti asosida ular bilan umumprofilaktik tadbirlarni tashkil etish. 5. Xavf guruhidagi talabalarning oila a'zolari bilan alohida ishlash.	2026-yil Davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O Yusupdjanov, Yoshlar ishlari ofisi, Universitet psixologi, fakultet dekanlari, kurs koordinatorlari
15	Talabalar muammolari bilan ishlash	1. Talabalar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'ygan holda, ularning shaxsiy va kasbiy qiziqishlarini o'rganish hamda ushbu qiziqishlarni rivojlantirishga qaratilgan yakka va jamoaviy maslahatlar berish.	2026-yil Davomida	Yoshlar ishlari ofisi, Fakultet dekanlari, Yoshlar ittifoqi, PR va

		<p>2. Nogironligi bo‘lgan talabalarning ijtimoiy moslashuvi uchun sharoit yaratish va inklyuziv ta’lim g‘oyalarini targ‘ib qilish;</p> <p>3. Universitetda tahsil oluvchi nogironligi bo‘lgan talabalar bilan ishlarni tizimli tashkil etish; Inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish choralari ko‘rish.</p> <p>4. Universitetda onlayn psixolog xizmatini tashkillashtirish, ruhshunos (psixolog)lar tomonidan yoshlar bilan individual suhbatlar, muloqotlar olib borilishini nazorat qilish.</p> <p>5. Xorijdan kelib tahsil olayotgan talabalarga moslashish ko‘nikmalari va psixologik muhitni tashkillashtirishda yordam berish.</p>		marketing, Universitet psixologi
16	Besh tashabbus doirasida bajariladigan ishlar	<p>1-tashabbus doirasida talabalarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, san’atga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar: “Yoshlar” teatr-studiyasi, milliy qo‘shiq va raqs ansambli faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda ularni zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash. “Tasavvurimda jonajon O‘zbekistonim”, “Teatr – ibrat maskani”, “Nazm va navo” mavzularida tanlovlar o‘tkazish; “Talabalar teatr studiyasi” festivali universitet bosqichini o‘tkazish; talabalarning ijodiy ishlar ko‘rgazmasi, yaratgan ishlanmalari va ma’rifiy targ‘ibot aksiyasini o‘tkazish; san’at arboblari, yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar bilan vebinar uchrashuvlar, mushoiralar, badiiy kechalar tashkil etish; “Men chizgan surat” ko‘rgazmasini tashkil etish;</p> <p>2-tashabbus doirasida sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha Osiyo, jahon va olimpiada chempionlari, musobaqa g‘oliblari ishtirokida vebinar uchrashuv va mahorat darslarini o‘tkazish. mamlakatimizning sport sohasida erishayotgan yutuqlarini yoshlarga keng targ‘ib etish maqsadida “Olimpiya shon-shuhrati muzeyi”ga tashrif asosida “Mahorat darslari”ni o‘tkazish; fakultetlar kesimida dars mashg‘ulotlaridan so‘ng sport turlari bo‘yicha to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish; “Oltin kuz” sovrini uchun yengil atletika bo‘yicha kross yugurish (yigitlar-3000 m, qizlar-2000 m) musobaqasini o‘tkazish; universitetda jismoniy</p>	<p>2026-yil davomida</p> <p>2026-yil iyun va sentabr</p>	<p>Besh muhim tashabbus markazi Akademik va o‘qituvchilar ishlari ofisi, fakultet dekanlari, barcha kurs koordinatorlari, talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, PR va marketing ofisi</p>

		<p>tarbiya va ommaviy sport-sogʻlomlashtirish hamda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish ishlarini muntazam targʻibot qilish maqsadida seminar-treninglar, suhbatlar, maʼruzalar va konferensiyalar oʻtkazish;</p> <p>3-tashabbus doirasida talabalar oʻrtasida kompyuter dasturlash, kompyuter sporti (kibersport)ni ommalashtirish: IT-yoʻnalishi boʻyicha talabalar oʻquv kurslarini tashkil etish; talabalar oʻrtasida onlayn-viktorina va kompyuter dasturlash boʻyicha tanlovlar oʻtkazish; “Bilimlar bellashuvi” tanlovi tashkil etish;</p> <p>4-tashabbus doirasida akademik guruhlarda har haftada bir marotaba shaklda badiiy adabiyot taqdimotini tashkil qilish. Uning doirasida “Mening birinchi kitobim” maʼrifiy loyihasini oʻtkazish. Loyiha doirasida talabalar ijod namunalarini toʻplam sifatida nashr etish. Talabalarni badiiy adabiyot mutolaasiga qiziqishlarini yuksaltirishga qaratilgan “Bir oyda 10 kitob — 1 yilda 100 kitob bilan doʻstlashdim”, “Jahondagi javohirlar” loyihasi doirasida universitet online tanlovlarini tizimli oʻtkazish va gʻoliblarni ragʻbatlantirish ishlarini amalga oshirish; «Talaba oʻqishi zarur boʻlgan 100 kitob» roʻyxatini tuzish, yil davomida ushbu asarlar universitet veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida oʻqib borilishini tashkil etish, turli roliklar, bosma targʻibot ishlarini amalga oshirish va ijtimoiy tarmoqlarda ushbu tashabbusning keng tashviqotini olib borish. Talabalar oʻrtasida milliy va jahon mumtoz adabiyotining yuksak namunalarini targʻib qiluvchi “Kitob bu – moʻjiza”, “Kitobga mehr – maʼnaviyatga, maʼrifatga mehrdir” mavzularida “Kitob bayrami” va “Kitob yarmarkalari”ni tashkil etish; “Birga kitob oʻqiyamiz” loyihasini amalga oshirish; Professor-oʻqituvchilari oʻrtasida “Oʻqituvchining talabalarga 3 ta badiiy adabiyot sovgʻasi” va “Rahbarning taʼlim muassasasiga 10 ta badiiy adabiyot sovgʻasi” aksiyasini tashkil etish. Oʻzbek adabiyoti vakillari ijodi bilan yaqindan tanishish va ularning badiiy asarlarini mutolaa qilish hamda allomalarning tavallud kunlariga bagʻishlangan adabiy-badiiy kechalar tashkil etish.</p>	<p>2026-yil iyun va sentabr</p> <p>2026-yil davomida</p>	
--	--	--	--	--

		5-tashabbus doirasida talabalarni tarbiyaviy jarayonlarga to'liq qamrab olish, ularni bandligini ta'minlash, darsdan bo'sh vaqtini samarali tashkil etish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar: Universitetda tikish-bichish, kashtachilik, milliy hunarmandchilik bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etish, "Qizlar davrasi", "Oilaga va turmushga tayyorlash" mavzularida psixologik seminar-treninglar o'tkazish.	2026-yil iyun va sentabr	
<b>II.O'quv va o'quv-uslubiy sohada amalga oshiriladigan ishlar</b>				
17	Ta'lim jarayonida talabalarning darslari, davomati va dars sifatining monitoringini olib borish	1. O'quv-tarbiyaviy sohalaridagi muammolarini bartaraf etish bo'yicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishlash; 2. Talabaning darslariga qatnashishi, o'zlashtirish va ijtimoiy hayotidagi roliga oid takliflarni, talabaning rag'batlantirilishi yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqligi bo'yicha xulosa berish; 3. Talabalarning darslarga qatnashishlari bo'yicha davomatni yuritish, sababsiz qoldirilgan dars mashg'ulotlari yuzasidan tegishli choralar ko'rish bo'yicha fakultet dekanatiga bildirgi kiritib borish.	2026-yil davomida	Tegishli fakultet dekan muovini, kurs koordinatorlari
18	Talabalar murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish.	Talabalardan kelib tushgan og'zaki, yozma va elektron murojaatlarni qabul qilish, tahlil qilish, ularga yechim izlash va natijasi bo'yicha talabaga axborot berish	2026-yil davomida	Tegishli fakultet dekan muovini, kurs koordinatorlari
19	To'rtinchi bosqich talabalarini "JIDU akademik nizomi"da malakaviy amaliyot bo'yicha amalga oshiradigan ishlarini tegishli tartibda va belgilangan muddatda amalga oshirish	To'rtinchi bosqich talabalariga "JIDU akademik Nizomining 168-204-bandlari to'liq mazmun-mohiyatini tushuntirish, amaliyot davrida ularga rioya qilish bo'yicha monitoring ishlarini amalga oshirish, uning natijalarini muntazam muhokama etish	2026-yil Fevral-may	Tegishli fakultet dekani, amaliyot rahbarlari, kurs koordinatorlari
20	Amaliyot davrida talabalarning, davomati va amaliyot o'tashi kerak bo'lgan joylarga har kuni qatnashini nazorat qilib borish.	Talabaning amaliyotga qatnashishi, ushbu joylarda ish o'rganishi bo'yicha kunlik davomatini yuritish, talablar amaliyot joyidan kundalik to'ldirishlarini nazorat qilish, sababsiz amaliyot joyiga bormayotgan talabalarga tegishli choralar ko'rish bo'yicha fakultet dekanatiga bildirgi kiritib borish.	2026-yil Fevral-may	Fakultet dekani, amaliyot rahbarlari, kurs koordinatorlari

21	“Hemis” tizimida talabalar haqidagi ma’lumotlar bazasini doimiy nazorat qilish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Talabalarining umumiy elektron ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish;</li> <li>2. Talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish.</li> <li>3. Chin yetim, boquvchisini yo‘qotgan, nogiron, kam ta’minlangan va ko‘p bolali oila farzandlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish;</li> <li>3. Talabalar yashash joy manzillarini kiritish va o‘rganish;</li> <li>4. Nogironligi bo‘lgan, yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va kam ta’minlangan talabalarga</li> </ol>	2026-yil davomida	Fakultet kurs koordinatorlari
22	Dars jadvallarini shakllantirish va baholash jarayonlarida ishtirok etish	Har semesterda administrativ ofislarga dars jadvallarini shakllantirish va baholash jarayonlarida ko‘maklashish. Xususan, talabalarni dars jadvallarini shakllantirishdagi takliflari, ular uchun eng qulay vaqtlar, baholashda ortda qolayotgan talabalar va ularni darslarga jalb qilish, talabalar baholarini Moodle va Hemis tizimlariga kiritilishida ishtirok etish va hkz.	2026-yil davomida	Fakultet kurs koordinatorlari
23	Talabalar ota-onalari bilan hamkorlik tizimini kuchaytirish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Muntazam ravishda talabalarining amaliyotga qatnashishi, yurish-turishi, faolligi bo‘yicha ota-onasi bilan muntazam muloqotlar tashkil etish;</li> <li>2. Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, mas’uliyati va o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko‘maklashish;</li> <li>3. Ota-onalarga talabalarining ota-onalarini o‘quv tarbiyaviy jarayonlar va darslardagi davomat yuzasidan muntazam tanishtirish va axborot berib borish.</li> </ol>	2026-yil davomida	Fakultet kurs koordinatorlari
24	Ta’lim sifati va akademik mas’uliyatni oshirishga qaratilgan ishlar.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Akademik halollik, reyting nizomi va ichki tartib-qoidalar bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borish.</li> <li>2. Dekanat Bosh mutaxasisi bilan birgalikda barcha fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi “a’lo” bo‘lgan talabalarga qo‘shimcha stipendiya tayinlanishga ko‘maklashish</li> </ol>	2026-yil davomida	Akademik sifatni ta’minlash va standartlashtirish ofisi, Fakultet kurs koordinatorlari
25	O‘quv-uslubiy muammolarni aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlar.	Talabar o‘qish va amaliyot jarayonida yuzaga kelgan fanlar kesimida o‘quv-uslubiy muammolarni aniqlash va bu bo‘yicha dekanga takliflar kiritish.	2026-yili davomida	Fakultet dekani, fakultet kafedra professor-o‘qituvchilari, kurs koordinatorlari

26	Talabalarni akademik halollik tamoyillariga rioya qilishga yo'naltirish	Talabalarni semester mobaynida belgilangan o'quv yuklamalarini bajarish, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshirish vaqtida akademik halollik qoidalarga to'liq rioya etishlari va ushbu qoidalarga rioya etmaslikning axloqiy holati va u keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlarini haqida batafsil tanishtirish	2026-yili davomida	Fakultet kurs koordinatorlari
27	Nogironligi mavjud, "Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi" bo'lgan talabalarni quvvatlash, o'quv, ilmiy, ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash va imkoniyatlar yaratish.	1. Alohida e'tiborga muhtoj talabalar uchun tegishli tartibda qo'llab-quvvatlash. Dekanat bosh mutaxasisi bilan birgalikda ularga bazaviy stipendiya miqdoridan oshirilgan hisobda stipendiya tayinlanishini ta'minlash	2026-yil Mart va oktabr	Fakultet dekani, kurs koordinatorlari
28	Talabalarni Bitiruv malakaviy ishiga tayyorgarlik ko'rishda talabalar ilmiy rahbarlari bilan ishlash tizmini muvofiqlashtirish hamda ularga biriktirilgan ilmiy rahbarlar bilan hamkorlikni davom ettirish.	Bitiruv malakaviy ishiga tayyorgarlik ko'rish, baholash mezonlari bo'yicha tushuntirishlar berish. Kafedralar kesimida talabalar tanlagan mavzulari bo'yicha himoya kunlarini tashkil etish.	2026-yil Aprel-may	Fakultet dekani, talabalarning ilmiy rahbarlari, kurs koordinatorlari
29	Akademik qarzdorliklarni bartaraf etish va Bitiruv ishini himoya bosqichiga tayyorlash ishlariga ko'maklashish.	Akademik qarzdor talabalar ro'yxatini shakllantirish hamda Bitiruv malakaviy ishi himoyasiga qadar ularning qarzdor fanlarini o'zlashtirib olishlariga ko'maklashish.	2026-yil may-iyun	Fakultet dekani, kurs koordinatorlari
30	Akademik qarzdorligi qolmagan talabalarni Bitiruv malakaviy imtihoniga kirishi uchun amaliy ko'maklashish.	Amaliytni muvaffaqiyatli tugatib kelgan, fanlardan qarzdorligi yo'q talabalarni ilmiy rahbarlari bilan tizimli ishlab, bitiruv loyihalarini tugatib, ularni bevosita BMI himoyasiga kirib, himoya qilishini ta'minlash	2026-yil may-iyun	Fakultet dekani, kurs koordinatorlari
31	Dekanat xodimlari bilan Bitiruv malakaviy ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan talabalarga diplom loyihalarini tayyorlash hamda ularning diplomlarini elektron variantini, ular ko'rib tasdiqlab berganidan keyin, asl nusxasini taqdim qilish ishlarini tashkil qilish.	Talabalar to'rt yil o'qiganlarining hosili bo'lmish diplomlarini tezroq tayyorlab, ish beruvchilar talabalarimizdan so'rayotgan hujjatni ularga kamchiliksiz taqdim qilish ishini tashkil etish.	2026-yil Iyun-iyul	Fakultet dekani va xodimlari

32	Fakultet Bitiruvchilari uchun bitiruv marosimini tashkil etish, ularni diplom va esdalik sovg‘lari bilan taqdirlash .	Bitiruv marosimini Univeristet rahbariyati boshchiligida hamda talabalarning ota-onalari ishtirokida tashkil etish. Yaxshi akademik ko‘rsatgichga ega, to‘rt yil davomida o‘zini har tomonlama yaxshi ko‘rsatgan talabalarning ota-onalariga ham “Tashakkurnoma” va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlash	2026-yil Iyul	Fakultet dekani, kurs koordinatorlari
<b>III. Ilm-fan, innovatsiya va tadqiqotlar sohasida amalga oshiriladigan ishlar</b>				
33	Talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda faol ishtirokini ta‘minlash.	1. Xalqaro grant va loyihalar ro‘yxatini shakllantirish va e‘lon qilish; 2. Ilm-fan hamda tadqiqotlarda faol ishtirok etayotgan talabalarni ta‘lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan rag‘batlantirilishini tashkil etish.	2026-yil davomida	Fakultet koordinatorlari, Students Scientific Society mas‘uli, UWED Students' Council
34	Talabalarning ilm-fan sohasida yuksalishiga ko‘maklashish.	1. Talabalarni “Ustoz-shogird” tizimi asosida professor-o‘qituvchilarga biriktirish; 2. Talabalarga ilmiy maqolalar yozishda maslahatlar berish va chop etishda yordam ko‘rsatish; 3. Iste‘dodli talabalarni aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to‘garaklar, innovatsion startaplarga yo‘naltirish.	2026-yil davomida	Fakultet kurs koordinatorlari, tegishli fakultet dekan muovini, fakultet kafedra mudirlari Students Scientific Society ma‘uli UWED Students' Council
35	Talabalarni turli ilmiy tadbirlarga jalb etish	Tezis va maqolalar yozish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar ishtirokida master klass darslarini tashkil etish.	2026-yil Davomida	Fakultet kurs koordinatorlari, dekan muovini, Students Scientific Society
<b>IV. Tashkiliy-funksional sohasida amalga oshiriladigan ishlar</b>				
36	Ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni aniqlash	Yetim, nogironligi bo‘lgan va kam ta‘minlangan talabalar ro‘yxatini yangilash	2026-yil davomida	Fakultet kurs koordinatorlari
37	To‘lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar to‘lovlarini nazorat qilish	To‘lovni kechiktirayotgan talabalar bilan suhbatlar o‘tkazish, to‘lov ro‘yxatni fakultet dekaniga taqdim etish	2026-yil davomida	Fakultet kurs koordinatorlari

38	Qayta o'qish (trimestr) asosida ta'lim olayotgan talabalar bilan ishlash	Qayta o'qishga jalb etilgan talabalar ro'yxatini shakllantirish, to'lov holatini nazorat qilish	2026-yil davomida	Fakultet kurs koordinatorlari
39	Talabalarga universitet axborot-resurslari va boshqa manbalardan samarali foydalanishlariga ko'maklashish.	Talabalarga universitet axborot-resurslari va boshqa manbalardan samarali foydalanishlariga ko'maklashish, talabalarda ulardan foydalanishda muammolar yuzaga kelganda darhol ularga amaliy yordam ko'rsatish.	2026-yil davomida	Fakultet kurs koordinatorlari
40	Bitiruvchilarning bandligini ta'minlash yuzasidan bajariladigan ishlar	<p>Milliy va Respublika darajasidagi tashkilot-idoralar, xalqaro tashkilotlar, xususiy firmalar va nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan muntazam hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda bitiruvchi talabalar bandligini ta'minlashga ko'maklashish. Ular quyidagilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati,</li> <li>-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi,</li> <li>-O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi,</li> <li>-Prezident huzuridagi Strategik va Mintaqalararo Tadqiqotlar Instituti,</li> <li>-SCO (ShHT),</li> <li>-Ilmiy tadqiqot markazlari</li> <li>BMT Turizm Tashkiloti (UNWTO),</li> <li>-Taraqqiyot strategiyasi markazi,</li> <li>-MITSA (MIQA Markaziy Osiyo Xalqaro instituti) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi va tizim tashkilotlari</li> <li>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va tizim tashkilotlari</li> <li>-O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va tizim tashkilotlari</li> <li>-“Black Swan Consulting” yuridik firmasi</li> <li>-“Centil Law Firm” yuridik firmasi</li> <li>-“Azizov &amp; Partners (Uzbekistan)” yuridik firmasi</li> <li>-“PraeLegal Uzbekistan” yuridik firmasi</li> <li>-“Legalmax Law Firm” yuridik firmasi</li> <li>-O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi,</li> <li>- O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi,</li> <li>-Markaziy Bank,</li> <li>-Tijorat banklari,</li> </ul>	2026-yil davomida har oy	Fakulteti dekani va o'rinbosari, Kafedra mudirlari, kurs koordinatorlari

		<ul style="list-style-type: none"><li>-Ilmiy tadqiqot markazlari,</li><li>-O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi,</li><li>-ИПМИ Makroiqtisodiy tadqiqotlar Markazi,</li><li>- Iqtisodiyot va moliya vazirligi,</li><li>- Kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Milliy Statistika Qo'mitasi,</li><li>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi,</li><li>- Shahar, tuman hokimiyatlari</li></ul>		
--	--	---	--	--